

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13.30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

UBAYDULLAYEV MALIK SHAVKATOVICH

**ATMOSFERADA RADIOAKTIV MODDALARNING MEZOMASSHTABLI
KO'CHISHI VA DIFFUZIYASI JARAYONLARINI MODELASHTIRISH**

05.01.07 – Matematik modelashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Ubaydullayev Malik Shavkatovich

Atmosferada radioaktiv moddalarning mezomasshtabli ko‘chishi va diffuziyasi
jarayonlarini modellashtirish3

Убайдуллаев Малик Шавкатович

Моделирование мезомасштабных процессов атмосферного переноса и
диффузии радиоактивных примесей21

Ubaydullaev Malik Shavkatovich

Modeling of mesoscale processes of atmospheric transport and diffusion of
radioactive impurities39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13.30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

UBAYDULLAYEV MALIK SHAVKATOVICH

**ATMOSFERADA RADIOAKTIV MODDALARNING MEZOMASSHTABLI
KO'CHISHI VA DIFFUZIYASI JARAYONLARINI MODELASHTIRISH**

05.01.07 – Matematik modelashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4871 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.airi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Dilshot Dilmuradovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), k.i.x.

Rasmiy opponentlar:

Eshmatov Baxtiyor Xasanovich

fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Shafiyev Tursun Rustamovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.13.30.12.2021.T.142.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "03" oktabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, M. Ulug'bek tuman, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (+99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya bilan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, M. Ulug'bek tuman, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (+99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" sentabr kunida tarqatildi.
(2025-yil "12" sentabr dagi 16 raqamli reestr bayonnomasi.)



N.Ravshanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nuraliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

E.Sh.Nazirova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa fan doktori (Phd) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda atmosferada radionuklidlarning texnogen chiqindilarini tarqalish jarayonlarini matematik modellashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Yigirmaga yaqini jiddiy yoki halokatli oqibatlarga olib kelgan yuzdan ortiq muhim hodisalardan iborat to'plangan jahon tarixi radioaktiv moddalarning favqulodda chiqindilari tarqalishining xususiyati va ko'lamini o'z vaqtida bashorat qilish va aniq baholashning g'oyat muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu ilmiy yo'nalishga qiziqish radioaktiv ifloslanishning uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini boshqarish samaradorligini oshirish zarurati, shuningdek, xavflarni tezkor baholash va birinchi navbatda aholi hayoti va salomatligiga yetkaziladigan zararni kamaytirishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Atmosferada radioaktiv moddalarning ko'chishi va diffuziyasining mezomasshtabli jarayonlarini kompyuterda modellashtirish uchun matematik va dasturiy ta'minotni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi, ayniqsa, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Belarus, Ukraina va boshqa yadro energetikasi rivojlangan mamlakatlarda yuqori hisoblanadi.

Butun dunyoda jarayonga ta'sir etuvchi omillarning murakkab majmuini hisobga olgan holda, atmosferaning chegaraviy qatlamida radioaktiv moddalarning texnogen chiqindilari konsentratsiyalari taqsimotini bashoratlash, tahlil qilish va baholash uchun matematik modellar, hisoblash algoritmlari va dasturiy majmualarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan maqsadli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijalari atmosferada radioaktiv ifloslanishlarning tarqalishining fizik qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunishning sifat jihatidan yangi darajasini ta'minlashga qodir bo'lib, bu ekologik monitoring maqsad va vazifalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda atom energiyasi ishlab chiqarish milliy infratuzilmasini rivojlantirish loyihasini amalga oshirish munosabati bilan ehtimoliy favqulodda chiqindilar xavfi va oqibatlarini baholashning zamonaviy vositalarini yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 - 2029-yillarda O'zbekiston Respublikada atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida "O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq milliy yadro-energetika dasturini rivojlantirish munosabati bilan atrof-muhitni muhofaza qilish va radiatsiyadan himoya qilish sohasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish" ta'kidlangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "...atrof-muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy ravishda axborot bilan ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va ularning atrof-muhitga ta'siri monitoringini amalga oshirish..." nazarda tutilgan. Ko'zda tutilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi radiatsiyaviy xavfsizlikning sanitariya me'yorlarini tezkor nazorat qilish, ekologik vaziyat sharoitlarini bashoratlash va texnogen ifloslanish oqibatida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfi to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirish hisobiga ekologik xizmatlar faoliyati samaradorligini

oshirishga yo‘naltirilgan matematik modellashtirish usullarini yanada rivojlantirish va kompyuter tizimlarini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 19-iyuldagi PF-5484-son “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 7-fevraldagi PQ-4165-son “2019 - 2029-yillarda O‘zbekiston Respublikada atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-sentyabrdagi 737-son “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zararli aralashmalar, jumladan radioaktiv moddalarning atmosferada tarqalish jarayonlarini matematik modellashtirish usullarini rivojlantirish masalalari S.R. Hanna, G.A. Briggs, G. Fornier, A. Robert, E. Kalnay, V.I. Kotlyarov, A.S. Monin, A.M. Obuxov, G.I. Marchuk, A.Ye. Aloyan, M.Ye. Berlyand, I.E. Naats va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida aks ettirilgan. O‘zbekistonda atmosferaning ekologik holatini baholash va bashoratlash masalalarini yechish uchun matematik modellar, sonli algoritmlar va dasturiy vositalarni ishlab chiqishga F.B. Abutaliyev, K.S. Karimberdiyeva, N. Ravshanov, M.L. Arushanov, B.S. Telemuratova, D.K. Sharipov va boshqa olimlar rahbarligidagi ilmiy jamoalar salmoqli hissa qo‘shgan.

Ko‘plab ilmiy nashrlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, atmosferada radioaktiv moddalarning tarqalishining mezomasshtabli jarayonlari ko‘p omilli, nochiziqli va stoxastik tabiatga ega. Bunda ular turbulent diffuziya, konvektiv va advektiv oqimlar, quruq gravitatsion cho‘kish, nam yuvilish, fotokimyoviy o‘zgarishlar, radioaktiv parchalanish va boshqalarni o‘z ichiga olgan butun bir fizik jarayonlar majmuasini qamrab oladi. Ushbu ta’sir etuvchi omillar yoki ularning birikmalari ko‘pincha mavjud modellarda to‘liq hisobga olinmaydi va tavsiflanmaydi - ayniqsa haqiqiy relyef, murakkab ob-havo sharoiti va atmosferaning fazoviy bir xil emasligi sharoitida. Ushbu ilmiy sohadagi shubhasiz taraqqiyotga qaramay, turli omillar ta’sirida mezomasshtabli sharoitlarda radioaktiv moddalarning atmosferada ko‘chishi modellarini yanada takomillashtirish yakunlangan vazifa emas, balki doimiy ravishda rivojlanib borayotgan ilmiy yo‘nalishdir. Bu yangi bilimlar, texnologiyalar va ma’lumotlarni keyingi izlanishlar orqali aniqlashni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti A-OT-2021-108-sonli "Orolbo'y mintaqasi atrof-muhitining ekologik holatini kuzatish va bashorat qilishning axborot-tahliliy tizimini ishlab chiqish" (2021-2023 yillar) hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining F2-FQ-0-47339F-015-sonli "Kvant o'lchamli nanostrukturalar fizikasi" (2014-2018 yillar) mavzusidagi ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi atmosferada radioaktiv moddalar tarqalishining mezomasshtabli jarayonlarini matematik modellarini, ekologik monitoring va radiatsion xavfsizlikni nazorat qilish masalalarini yechish uchun sonli algoritmlar va dasturiy ta'minotlar majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

atmosferadagi murakkab modda ko'chishi jarayonlarini sonli modellashtirish uchun mavjud modellar va usullarini tahlilini amalga oshirish;

yog'ingarchilik yordamida yuvilish va boshqa fizik omillarni hisobga olgan holda atmosferada radioaktiv moddalar konsentratsiyasining tarqalishini tahlil qilish va bashorat qilish uchun atmosferada modda ko'chishining matematik modelini takomillashtirish;

vaqt va fazoviy o'zgaruvchilar bo'yicha yuqori aniqlikka ega bo'lgan atmosferada radioaktiv moddalar konsentratsiyasining tarqalishini baholash va bashorat qilish masalasini sonli yechishning samarali algoritmini ishlab chiqish;

vaqt o'tishi bilan tashlanma massasining o'zgarishiga fizik jarayonlar ta'sirini hisobga olgan holda atmosferada radioaktiv moddalarning turbulent ko'chishi mezomasshtabli jarayonining modelini ishlab chiqish.

atmosferada radioaktiv moddalarning turbulent ko'chishi mezomasshtabli jarayoni masalasini yechish algoritmini ishlab chiqish hamda hisoblash jarayonining yuqori approksimatsiya aniqligi va barqarorligini ta'minlash;

atmosferada radioaktiv moddalarning texnogen tashlanmalar tarqalishi jarayonini sonli modellashtirish bo'yicha hisoblash tajribalarini o'tkazish, shuningdek, hisoblash sohasidagi ekologik yuklamani baholash uchun dasturiy majmuani ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida fizik omillar ta'sirida mezomasshtabli sharoitlarda texnogen tashlanma bo'lgan radioaktiv moddalarning atmosferada ko'chishi va tarqalishi jarayonlari olingan.

Tadqiqot predmeti atmosferada radioaktiv moddalar konsentratsiyalarining fazoviy-vaqt tarqalishini baholash va bashoratlash masalalarini yechish uchun mo'ljallangan matematik modellar, hisoblash algoritmlari va dasturiy vositalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, matematik modellashtirish va hisoblash tajribasi, hisoblash matematikasi usullari qo'llanilgan, shuningdek, dasturiy majmualarni ishlab chiqish uchun obyektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

meteorologik sharoitlar, yog‘ingarchilik yordamida yuvilish, cho‘kish hamda radionuklidlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda atmosferada radioaktiv moddalarning ko‘chishi va diffuziyasi jarayonining matematik modeli takomillashtirilgan;

chiziqli algebraik tenglamalar tizimini hisoblash bosqichlarini parallellashtirish asosida vaqt va fazoviy o‘zgaruvchilarga nisbatan yuqori tartibli aniqlikka ega bo‘lgan atmosferadagi radioaktiv moddalar konsentratsiyasi maydonlarini hisoblashning samarali algoritmi ishlab chiqilgan;

meteorologik sharoitlarni, hududning xususiyatlarini, radioaktiv zarrachalarning xususiyatlarini va vaqt bo‘yicha tashlanma massasining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi tegishli fizik omillarni hisobga olgan holda atmosferada radioaktiv moddalarning turbulent ko‘chishi mezomasshtabli jarayonining skrining modeli ishlab chiqilgan;

modellashtirishning yuqori aniqliligi va turg‘unligini ta’minlaydigan Van Leer cheklovchisi bilan yarim oshkormas Krank-Nikolson sxemasi va ikkinchi tartibli TVD sxemasining kombinatsiyasi asosida atmosferada radioaktiv moddalarni turbulent ko‘chishining mezomasshtabli jarayoni masalasini sonli yechish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqilgan matematik apparat asosida meteoparametrlar, zarrachalarning fizik-mexanik xususiyatlari, zarrachalarning cho‘kish tezligi, o‘simlik elementlari tomonidan zarrachalarni ushlab qolish omili, shuningdek, yog‘ingarchilik (yomg‘ir, qor, tuman) yordamida zarrachalarning yuvilish omilini hisobga olgan holda atmosferadagi radioaktiv moddalar konsentratsiyasini hisoblash va vizuallashtirish uchun dasturiy majmua yaratilgan;

ishlab chiqilgan dasturiy majmua yordamida mavjud va yangi loyihalashtirilayotgan sanoat obyektlari tomonidan chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalardan kelib chiqadigan ekologik yukni baholash va bashoratlash bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirildi. Bu esa o‘z navbatida ekologik xavflarni kamaytirish bo‘yicha asosli va o‘z vaqtida qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini ta’minladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi atmosferada moddaning diffuzion ko‘chishi tenglamalari va masalalarning chegaraviy shartlari massa saqlanish qonunlariga qat’iy muvofiq holda shakllantirildanligi bilan asoslanadi. Sonli usullardan foydalanishda hisoblash jarayonining zaruriy approksimatsiya aniqligi va yaqinlashuvchanligi ta’minlangan, sonli tajribalarning natijalari esa o‘rganilayotgan jarayonning fizik mohiyatiga zid kelmaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bir qator fizik omillar ta’sirini hisobga olgan holda radioaktiv moddalarning atmosferadagi ko‘chishi va tarqalishi mezomasshtabli jarayonlarining matematik modellarini takomillashtirish hamda parallel hisoblash texnologiyalaridan foydalangan holda samarali sonli algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining amaliy ahamiyati sanitariya me'yorlarini monitoring qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik xavflarni minimallashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish choralari amalga oshirish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilinishni qo'llab-quvvatlash maqsadida sanoat hududlarida atmosferaning ekologik monitoringi uchun dasturiy majmua ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat hududlari atmosferasining ekologik holatini tahlil qilish, baholash va bashorat qilish uchun matematik modellar, sonli algoritmlar hamda ularning dasturiy ta'minotini qo'llash asosida:

atmosferaning chegara qatlamidagi ifloslantiruvchi aralashma konsentratsiyasini hisoblash va tasvirlash uchun matematik va dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan. Dasturiy ta'minot zararli zarrachalarning fizik-mexanik xususiyatlarini, o'simliklarning yutish qobiliyatini va joyning relyefini hisobga oladi. Mazkur dasturiy ta'minot "505-sonli MKMK" MChJ faoliyatiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati hokimligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 07-07/732-sonli ma'lumotnomasi asosida). Joriy etish natijasida asfalt ishlab chiqarishda texnologik uskunalardan chiqadigan zararli aralashmalarning atmosferadagi konsentratsiyasini bashorat qilish aniqligi 10-12 foizga oshirilgan;

sanoat zonalarida yaqinidagi atmosferada va yer yuzasida aerazol zarrachalarining konsentratsiyasini hisoblashni avtomatlashtirish uchun matematik va dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot zarrachalarning fizik-mexanik va kimyoviy xususiyatlarini, shuningdek, ob-havo sharoitlari va atrof-muhitning yutish qobiliyatini hisobga oladi. Ushbu tizim "Jomboy yashil chiroqlari" MChJ faoliyatiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati hokimligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 07-07/732-sonli ma'lumotnomasi asosida). Natijada, tozalash uskunalari o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratilgan. Bundan tashqari, sement va qurilish aralashmalarini ishlab chiqarishda ruxsat etilgan chiqindilar me'yorlari buzilishining oldini olish orqali moliyaviy va mehnat xarajatlari 6-8% ga kamayishiga erishilgan;

atmosferada va yer yuzasi sathidagi mayda zarrachalar konsentratsiyasini hisoblash hamda vizuallashtirish uchun mo'ljallangan matematik va dasturiy ta'minot, aralashmalarning fizik-mexanik xususiyatlarini, shuningdek, hududning ob-havo sharoiti va relyefini inobatga olgan holda, "Shirinkent nuri" MChJ faoliyatiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati hokimligining 2024-yil 6-sentyabrdagi 07-07/732-sonli ma'lumotnomasi). Joriy etish natijasida donni maydalash va po'stlog'ini ajratish qurilmalarining ishlashi paytida atmosferadagi zararli moddalar konsentratsiyasini baholash aniqligi 9-11 foizga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotining natijalari 3 ta xalqaro va 4 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 6 tasi xalqaro va 8 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda 4 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan bo‘lib, kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining O‘zbekiston Respublikasi fani va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish holatlari, shuningdek, tadqiqot natijalarining chop etilganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Atmosferada radioaktiv moddalarning tarqalish jarayonlarini matematik modellashtirishning hozirgi holati”** nomli birinchi bobi uch paragrafdan tashkil topgan. Birinchi paragrafda radionuklidlarning atmosferada paydo bo‘lishi va tarqalishi jarayonlarining umumiy xususiyatlari bayon etilgan, radioaktiv aralashmalarni chiqarishning potensial manbalari tahlil qilingan. Ikkinchi paragrafda atmosferadagi radioaktiv aralashmalarning tarqalishiga oid mavjud asosiy modellar ko‘rib chiqilgan. Uchinchi paragrafda radioaktiv aralashmalarning atmosferada tarqalishini matematik modellashtirish bo‘yicha asosiy masalalar va ularni hal etish yo‘llari muhokama qilingan.

Dissertatsiya ishining **“Yog‘ingarchilik yordamida cho‘kishni e‘tiborga olgan holda atmosferada radioaktiv moddalarning ko‘chishi va diffuziyasini matematik modellashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobi besh paragrafdan iborat bo‘lib, yog‘ingarchilik yordamida cho‘kishni e‘tiborga olgan holda radioaktiv moddalarning atmosferada ko‘chishi va diffuziyaning jarayonlarini matematik modellashtirishga bag‘ishlangan. Birinchi paragrafda yog‘ingarchilik yordamida cho‘kish, yutilish, parchalanish hamda zarrachalarning yer sathi va o‘simliklar tomonidan ushlanib qolinishi jarayonlarini hisobga olgan holda radionuklidlar xatti-harakatini tavsiflovchi takomillashtirilgan massa-ko‘chishi matematik modeli keltirilgan. Mazkur model o‘z ichiga quyidagi gidromexanika tenglamasini:

$$\begin{aligned} \frac{\partial C}{\partial t} + u \frac{\partial(hC)}{\partial x} + v \frac{\partial(hC)}{\partial y} + (w - w_g) \frac{\partial(hC)}{\partial z} + (\sigma + \alpha + \lambda + \Lambda)hC = \\ = \mu \frac{\partial}{\partial x} \left(h \frac{\partial C}{\partial x} \right) + \mu \frac{\partial}{\partial y} \left(h \frac{\partial C}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(\kappa h \frac{\partial C}{\partial z} \right) + \delta Q, \end{aligned} \quad (1)$$

hamda boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni oladi:

$$C|_{t=0} = C^0; \quad (2)$$

$$-\mu \frac{\partial(hC)}{\partial x} \Big|_{x=0} = \xi h(C_E - C), \quad \mu \frac{\partial(hC)}{\partial x} \Big|_{x=L_x} = \xi h(C_E - C), \quad (3)$$

$$-\mu \frac{\partial(hC)}{\partial y} \Big|_{y=0} = \xi h(C_E - C), \quad \mu \frac{\partial(hC)}{\partial y} \Big|_{y=L_y} = \xi h(C_E - C), \quad (4)$$

$$-\kappa \frac{\partial(hC)}{\partial z} \Big|_{z=0} = (\beta hC - f_0), \quad \kappa \frac{\partial(hC)}{\partial z} \Big|_{z=L_z} = \xi h(C_E - C). \quad (5)$$

Bu yerda C – atmosferada radioaktiv moddalarning konsentratsiyasi (g/m^3), C^0 – boshlang‘ich konsentratsiya (g/m^3), C_E – qarab chiqilayotgan maydon chegaralaridan kelayotgan konsentratsiya (g/m^3), x, y, z – koordinatalar sistemasi, u, v, w – uch yo‘nalishdagi shamol tezligi (m/s), w_g – zarracha cho‘kish tezligi (m/s), σ – aralashmaning atmosferada yutilish ko‘effitsiyenti (c^{-1}), α – o‘simlik elementlari tomonidan zarrachalarning tutilishini tavsiflovchi ko‘effitsiyent, λ – radioaktiv parchalanish doimiysi ($\lambda = \ln 2 / T_{1/2}$, $T_{1/2}$ – o‘rganilayotgan radionuklidning yarim parchalanish davri) (c^{-1}), μ, κ – diffuziya va turbulentlik ko‘effitsiyentlari mos ravishda (m^2/s), $Q(x, y, z)$ – radionuklidlar manbai, δ – Dirak funksiyasi, f_0 – zarrachalarning yer sathidan atmosferaga ko‘tarilishi, β – zarrachaning sirt bilan o‘zaro ta’sir ko‘effitsiyenti, ξ – o‘lchamni kichrayitish parametri, L_x, L_y – ko‘rib chiqilayotgan maydonning uzunligi va kengligi mos ravishda (m), L_z – ACHQ balandligi, Λ – yog‘ingarchilik yordamida cho‘kish ko‘effitsiyenti, h – o‘lchamsiz kattalik, bunda $h=0$ – agar qatlam yer ostida bo‘lsa, aks holda $h=1$ qatlam atmosferada bo‘lsa.

Ikkinchi paragrafda yog‘ingarchilikning (yomg‘ir, qor, tuman) zararli aralashmalarni yuvib ketish jarayoniga ta’siri o‘rganiladi, bunda DERMA modeli metodologiyasidan foydalanib, yog‘ingarchilik yordamida cho‘kish ko‘effitsiyentlarini hisoblash formulalari ishlab chiqilgan, meteorologik kuzatuvlarning tajriba ma’lumotlari tahlil qilingan hamda turli yog‘ingarchilik sharoitlarida har xil o‘lchamdagi zarrachalarning cho‘kish vaqti va davomiyligi hisoblab chiqiladi:

$$\Lambda = \Lambda_w + \Lambda_s + \Lambda_r, \quad (6)$$

bunda: Λ_w – zararli aralashmaning yomg‘ir yog‘ishi yordamida yuvilishiga mos keladigan cho‘kish ko‘effitsiyenti; Λ_s – zararli aralashmaning qor yog‘ishi yordamida yuvilishiga mos keladigan cho‘kish ko‘effitsiyenti; Λ_r – radionuklidlarning tumanli yoki bulutli ob-havoda yuvilishiga mos keladigan cho‘kish ko‘effitsiyenti

Λ_w, Λ_s va Λ_r ko‘effitsiyentlar quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\Lambda_w(r, q) = \begin{cases} a_0 \cdot q^{0.79} & \text{есми} \quad r \leq 1,4 (\text{мкм}), \\ (b_0 + b_1 r + b_2 r^2 + b_3 r^3) f(q), & \text{агар} \quad 1,4 < r \leq 10 (\text{мкм}); \\ a_1 q + a_2 q^2, & \text{агар} \quad r \geq 10 (\text{мкм}); \end{cases} \quad (7)$$

bu yerda q – yog‘ingarchilik yog‘ish tezligi (mm/soat), r – zararli zarrachaning xarakterli o‘lchami (mkm) va parametrlari:

$$\begin{aligned} a_0 &= 8.4 \times 10^{-5}, \quad a_1 = 2.7 \times 10^{-4}, \quad a_2 = -3.618 \times 10^{-6}, \\ b_0 &= -0.1483, \quad b_1 = 0.322, \quad b_2 = -3.006 \times 10^{-2}, \quad b_3 = 9.344 \times 10^{-4}. \\ \Lambda_s(q) &= a_0 q^b. \end{aligned} \quad (8)$$

Bu yerda:

$$a_0 = 8.0 \times 10^{-5}, \quad b = \begin{cases} 0.305, & z \leq H_r; \\ 0.79, & H_r < z < H; \end{cases}$$

H_r – bulutlar balandligi, H – chegaraviy qatlam balandligi.


$$\Lambda_r(q) = a_0 q^{0.79}, \quad (9)$$

bunda $a_0 = 3.36 \times 10^{-4}$.


Uchinchi paragrafda atmosferadagi aralashmalar konsentratsiyasini baholash va bashoratlashning (1)-(5) masalasini yechish uchun sonli algoritm qurilishi bayon etilgan. Fazoviy o‘zgaruvchilar bo‘yicha ikkinchi tartibli aniqlikdagi approksimatsiya qo‘llanilgan, haydash usulidan foydalanib bosqichma-bosqich yechish algoritmi ishlab chiqilgan. To‘rtinchi paragrafda katta hajmdagi ma’lumotlarda konsentratsion maydonlarni samarali hisoblash imkonini beruvchi Krank-Nikolson sxemasi va qo‘shma gradiyentlar usuli asosidagi parallel hisoblash algoritmi taqdim etilgan. Parallellashtirish numba kutubxonasi yordamida amalga oshirilgan bo‘lib, bu hisoblash vaqtini sezilarli darajada qisqartirgan. Beshinchi paragrafda ishlab chiqilgan algoritmning unumdorligi va aniqligi baholanib, to‘r va vaqt qadamining turli parametrlaridagi hisoblash tajribalari natijalari keltirilgan. Sonli usulning vaqt bo‘yicha yaqinlashishi va barqarorligi tahlili o‘tkazilgan, bu esa uning real sharoitlarda radioaktiv moddalarning tarqalishini modellashtirish uchun yaroqli ekanligini tasdiqlagan.

Etalon yechim sifatida quyidagi boshlang‘ich parametrlar bilan olingan $\Delta t_{\text{ref}} = 0.01$ bo‘lganda, jarayon parametrlari quyidagilar: $L = M = N = 100$ m; $N_x = N_y = N_z = 100$; $\Delta x, \Delta y, \Delta z, \Delta t = 1$; $u = 1.7525$, $v = 1.7525$, $w = 0.0$, $w_g = 0.01$ m/c; $D_x = 0.001247$, $D_y = 0.001247$, $D_z = 0.05247$ m²/s; $\sigma = 0.0$ c⁻¹; $\beta = 0$; $Q_s = 0.25$ g/m²·s; $S = 4$ m²; $\theta^0 = 0$ g/m³; $T = 1$.

Keyinchalik, yuqorida ko‘rsatilgan parametrlar bo‘yicha masalaning yechimi ketma-ket quyidagi vaqt qadamlari uchun olindi: $\Delta t_1 = 1.0$, $\Delta t_2 = 0.5$, $\Delta t_3 = 0.25$, $\Delta t_4 = 0.1$, $\Delta t_5 = 0.05$. Shundan so‘ng, har bir vaqt birligi uchun etalon yechim bilan solishtirib xatolik hisoblab chiqildi. Xatolikni hisoblashda L_2 -norma qo‘llanildi.



1-rasm. Turli Δt qiymatlari uchun yechim xatoliklari grafigi



2-rasm. Yaqinlashuv darajasini baholash

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, xatolik vaqt qadami Δt kichrayishi bilan kamayadi, ya’ni sonli algoritm aniqroq bo‘ladi deb hisoblash mumkin, bu esa sxemaning yaqinlashuvchanligini ko‘rsatadi.

Vaqtinchalik yaqinlashuv tartibini baholash uchun keltirilgan Δt qiymatlari bo‘yicha xatoliklar $E(\Delta t)$ dan foydalanib, Richardson usuli qo‘llaniladi. Olingan yaqinlashuv tartibi p qiymatlari har bir Δt juftligi uchun 2-rasmda keltirilgan.

«Atmosferada radioaktiv moddalarning parchalanishi, yuvilishi va cho‘kishini hisobga olgan holda mezomasshtabli turbulent ko‘chishini sonli modellashtirish» nomli uchunchi bob – atmosferada radioaktiv moddalarning mezomasshtabli turbulent ko‘chishini parchalanish, yuvilish va cho‘kish jarayonlarini inobatga olgan holda modellashtirishga bag‘ishlangan.

3.1-paragrafda mezomasshtabli turbulent radioaktiv primesalar tashilishini ifodalovchi matematik model:

$$\begin{aligned} \frac{\partial C}{\partial t} + \frac{\partial(uC)}{\partial x} + \frac{\partial(vC)}{\partial y} + \frac{\partial((w-w_g)C)}{\partial z} + \lambda C + \alpha C = \\ = \frac{\partial}{\partial x} \left(K_x \frac{\partial C}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(K_y \frac{\partial C}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left(K_z \frac{\partial C}{\partial z} \right) + \delta Q. \end{aligned} \quad (10)$$

boshlang‘ich va chegaraviy shartlar bilan keltirilgan:

$$C(x, y, z)|_{t=0} = 0, \quad \forall (x, y, z) \in \Omega. \quad (11)$$

$$\begin{cases} C|_{x=x_0} = 0, \text{ agar } u > 0; \\ K_x \frac{\partial C}{\partial x} \Big|_{x=x_0} = 0, \text{ agar } u < 0; \end{cases} \quad \begin{cases} C|_{x=x_L} = 0, \text{ agar } u < 0; \\ K_x \frac{\partial C}{\partial x} \Big|_{x=x_L} = 0, \text{ agar } u > 0; \end{cases} \quad (12)$$

$$\begin{cases} C|_{y=y_0} = 0, \text{ agar } v > 0; \\ K_y \frac{\partial C}{\partial y} \Big|_{y=y_0} = 0, \text{ agar } v < 0; \end{cases} \quad \begin{cases} C|_{y=y_W} = 0, \text{ agar } v < 0; \\ K_y \frac{\partial C}{\partial y} \Big|_{y=y_W} = 0, \text{ agar } v > 0; \end{cases} \quad (13)$$

$$-K_z \frac{\partial C}{\partial z} \Big|_{z=z_0} = w_g + \xi C - \eta C; \quad \begin{cases} C|_{z=z_H} = 0, \text{ agar } (w-w_g) < 0; \\ K_z \frac{\partial C}{\partial z} \Big|_{z=z_H} = 0, \text{ agar } (w-w_g) > 0. \end{cases} \quad (14)$$

Bu yerda Ω – masalaning yechilish sohasi (m^3), x_L , y_W , z_H – soha o‘lchamlari (m), $u(x, y, z)$, $v(x, y, z)$, $w(x, y, z)$ – shamol komponentalari tezligi (m/s), K_x , K_y , K_z – turbulent diffuziya koeffitsientlari (m^2/s), $\eta(x, y)$ – reemissiya koeffitsienti (yuza sathidan chiqish) (m/s).

Cho‘kish tezligi w_g ni hisoblashda, uning mexanikasi Stoks formulasi asosida tasvirlanadi va natijani aniqlashtirish maqsadida Kanningem tuzatish koeffitsienti qo‘llaniladi:

$$w_g = \frac{2 \langle r^2 \rangle g (\langle \rho_p \rangle - \rho_a)}{9 \mu_a} \theta_c,$$

bu yerda g – erkin tushish tezlanishi (9.81 m/s^2); $\langle r^2 \rangle$ – polidisperslikni hisobga olgan zarrachalar radiusining o‘rtacha kvadrati (m); $\langle \rho_p \rangle$ – zarrachalarning o‘rtacha zichligi (kg/m^3); ρ_a – zarracha zishligi (kg/m^3); μ_a – havoning dinamik yopishqoqligi ($Pa \cdot s = kg/m \cdot s$); $\theta_c = 1 + \frac{\langle l_a \rangle}{r} (A_1 + A_2 e^{-A_3/l_a})$ – Kanningem tuzatish faktori, bunda $\langle l_a \rangle$ – $20^\circ C$ haroratda havo molekulalarining o‘rtacha erkin yurish yo‘li (m) taxminan $0,066 \cdot 10^{-6}$ mikrometrni tashkil etadi; r – zarracha radiusi (m); A_1 , A_2 , A_3 – empirik konstantalar ($A_1 = 1,257$, $A_2 = 0,4$, $A_3 = 1,1$).

3.2-paragrafda atmosferada radioaktiv primesaning mezomasshtabli turbulent tarqalishi masalasining (10)–(14) tenglamalar asosida sonli yechimi uchun algoritm keltirilgan. Avvalo, izlanayotgan o‘zgaruvchilarning uzluksiz o‘zgarish sohasi har bir fazoviy yo‘nalish va vaqt bo‘yicha diskretlashtiriladi, natijada bir xilda taqsimlangan hisoblash to‘ri shakllantiriladi:

$$\Omega = \left\{ (x_i = x_0 + i\Delta x, y_j = y_0 + j\Delta y, z_k = z_0 + k\Delta z, t_n = n\Delta t); \right. \\ \left. i = \overline{0, N_x - 1}; j = \overline{0, N_y - 1}; k = \overline{0, N_z - 1}; n = \overline{0, N_t - 1} \right\}.$$

Fazoviy koordinatalar bo‘yicha qadamlar:

$$\Delta x = \frac{x_L - x_0}{N_x}, \quad \Delta y = \frac{y_W - y_0}{N_y}, \quad \Delta z = \frac{z_H - z_0}{N_z},$$

va mos ravishda yacheykalar markazlarining koordinatalari

$$x_i = x_0 + (i + 0,5)\Delta x, \quad y_j = y_0 + (j + 0,5)\Delta y, \quad z_k = z_0 + (k + 0,5)\Delta z.$$

Umumiy vaqt qadamlari soni $N_t = \lceil T/\Delta t \rceil$, Δt esa adaptiv tanlanadi, kontsentratsiya gradiyentlarini hisobga olgan holda, quyidagi Kurant–Fridrihs–Levi (CFL) barqarorlik sharti bajarilishi uchun. Shart maksimal adveksiya tezliklari va diffuziya koeffitsientlari asosida aniqlanadi.

Adveksiya uchun cheklov:

$$\Delta t_{\text{adv}} = \min \left(\frac{\Delta x}{\max(|u|) + \varepsilon}, \frac{\Delta y}{\max(|v|) + \varepsilon}, \frac{\Delta z}{\max(w - w_g) + \varepsilon} \right) \cdot 0,5.$$

Diffuziya uchun cheklov:

$$\Delta t_{\text{diff}} = \min \left(\frac{\Delta x^2}{\max(|K_x|) \cdot 2 + \varepsilon}, \frac{\Delta y^2}{\max(|K_y|) \cdot 2 + \varepsilon}, \frac{\Delta z^2}{\max(|K_z|) \cdot 2 + \varepsilon} \right) \cdot 0,5.$$

Yakuniy barqaror vaqt qadami:

$$\Delta t_{\text{safe}} = \min(\Delta t_{\text{adv}}, \Delta t_{\text{diff}}) \cdot \text{sf}.$$

Bu yerda $\varepsilon = 10^{-16}$, sf – tajriba asosida tanlanadigan xavfsizlik koeffitsienti, masalan, 0.1 yoki 0.7.

Bevosita qo‘yilgan masalaning yaqinlashgan yechimini topishda o‘zgaruvchan yo‘nalishlar usuli va Krank–Nikolsonning yarim-oshkor sxemasi qo‘llaniladi. Bunda advektiv hadlar Van Leer cheklovchi funksiyasi asosidagi TVD-sxema yordamida aniqlanadi, bu esa hisoblash barqarorligini oshirish va sonli tebranishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

(10)-tenglamaning vaqt bo‘yicha t_n qatlamdagi (i, j, k) tarmoq tugunidagi diskretlashtirilgan konservativ ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} & \frac{C_{i,j,k}^{n+1} - C_{i,j,k}^n}{\Delta t} + \frac{F_{i+1/2,j,k}^n - F_{i-1/2,j,k}^n}{\Delta x} + \frac{F_{i,j+1/2,k}^n - F_{i,j-1/2,k}^n}{\Delta y} + \\ & + \frac{F_{i,j,k+1/2}^n - F_{i,j,k-1/2}^n}{\Delta z} + \frac{(\lambda + \alpha)}{2} (C_{i,j,k}^{n+1} + C_{i,j,k}^n) = \\ & = \frac{1}{\Delta x} (D_{i+1/2,j,k}^{n+1/2} - D_{i-1/2,j,k}^{n+1/2}) + \frac{1}{\Delta y} (D_{i,j+1/2,k}^{n+1/2} - D_{i,j-1/2,k}^{n+1/2}) + \\ & + \frac{1}{\Delta z} (D_{i,j,k+1/2}^{n+1/2} - D_{i,j,k-1/2}^{n+1/2}) + Q_{i,j,k}, \end{aligned} \quad (15)$$

bu yerda: $F_{i\pm 1/2,j,k}^n$, $F_{i,j\pm 1/2,k}^n$, $F_{i,j,k\pm 1/2}^n - t_n$ qatlamda to‘r yacheykalarining qirralari orqali o‘tuvchi advektiv sonli oqimlar; $D_{i\pm 1/2,j,k}^{n+1/2}$, $D_{i,j\pm 1/2,k}^{n+1/2}$, $D_{i,j,k\pm 1/2}^{n+1/2} - t_n$ va t_{n+1} qatlamlari orasida o‘rtachalangan holda to‘r yacheykalarining qirralari orqali o‘tuvchi diffuzion oqimlar.

“Xom” advektiv oqimlarning approksimatsiyasi ikkinchi tartibli TVD-sxema yordamida amalga oshiriladi. Bunda Van Leer cheklovchi funksiyasi $\phi(r_{i,j,k})$ joriy etiladi. Diffuzion oqimlar $D_{i\pm 1/2,j,k}^{n+1/2}$, $D_{i,j\pm 1/2,k}^{n+1/2}$, $D_{i,j,k\pm 1/2}^{n+1/2}$ diffuziya koeffitsientlarining garmonik o‘rtacha qiymatlari asosida hisoblab chiqiladi. Hisoblash uchun Krank–Nikolsonning yarim-oshkor sxemasi qo‘llaniladi. (10)-tenglama ko‘p o‘zgaruvchili murakkab sistema ko‘rinishiga keltiriladi. Har bir vaqt qadami $[t_n, t_{n+1}]$ uchta bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqichda x bo‘yicha yechiladi, y va z

o'zgaruvchilar esa sobit qilinadi, shunda oraliq $C^n \rightarrow C^{n+1/2}$ yechim uchun quyidagi tenglama olinadi:

$$\frac{C_{i,j,k}^{n+1/2} - C_{i,j,k}^n}{\Delta t} = -\frac{F_{i+1/2,j,k}^n - F_{i-1/2,j,k}^n}{\Delta x} + \frac{D_{i+1/2,j,k}^{n+1/2} - D_{i-1/2,j,k}^{n+1/2}}{\Delta x} - \frac{(\lambda + \alpha)}{2}(C_{i,j,k}^n + C_{i,j,k}^{n+1/2}). \quad (16)$$

bu yerda:

$$F_{x^-} = u_{i-1,j,k} \left(C_{i-1,j,k}^n + \frac{1}{2} \phi \left(\frac{C_{i-1,j,k}^n - C_{i-2,j,k}^n}{C_{i,j,k}^n - C_{i-1,j,k}^n + \varepsilon} \right) (C_{i-1,j,k}^n - C_{i-2,j,k}^n) \right), \quad u_{i-1,j,k} \geq 0;$$

$$F_{x^-} = u_{i-1,j,k} \left(C_{i,j,k}^n - \frac{1}{2} \phi \left(\frac{C_{i,j,k}^n - C_{i-1,j,k}^n}{C_{i+1,j,k}^n - C_{i,j,k}^n + \varepsilon} \right) (C_{i+1,j,k}^n - C_{i,j,k}^n) \right), \quad u_{i-1,j,k} < 0.$$

$$F_{x^+} = u_{i,j,k} \left(C_{i,j,k}^n + \frac{1}{2} \phi \left(\frac{C_{i,j,k}^n - C_{i-1,j,k}^n}{C_{i+1,j,k}^n - C_{i,j,k}^n + \varepsilon} \right) (C_{i,j,k}^n - C_{i-1,j,k}^n) \right), \quad u_{i,j,k} \geq 0;$$

$$F_{x^+} = u_{i,j,k} \left(C_{i+1,j,k}^n - \frac{1}{2} \phi \left(\frac{C_{i+1,j,k}^n - C_{i,j,k}^n}{C_{i+2,j,k}^n - C_{i+1,j,k}^n + \varepsilon} \right) (C_{i+2,j,k}^n - C_{i+1,j,k}^n) \right), \quad u_{i,j,k} < 0.$$

